



**QARSHI MUHANDISLIK -  
IQTISODIYOT INSTITUTI**

# **INNOVATION IQTISODIYOT**

**Ilmiy-amaliy elektron jurnal**

# **ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА**

**Научно-практический электронный журнал**

# **THE INNOVATION ECONOMY**

**Electronic Scientific and Practical Journal**



**2024 / 4**



[innoeconomic@qmii.uz](mailto:innoeconomic@qmii.uz)



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



<https://ojs.qmii.uz/index.php/ej>



# INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON  
JURNAL

2-jild  
4-son  
dekabr, 2024

December 2024  
Volume 2  
Number 4

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА  
Научно-практический  
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY  
Electronic Scientific and Practical  
Journal

# INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

## Muassis:

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**

## Bosh muharrir:

O.SH.Bazarov, texnika fanlari nomzodi, dotsent  
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori*

## Bosh muharrir o'rinbosari:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

## Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD.  
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

## Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov  
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

*Jurnal 1 yilda 4 marotaba elektron shaklda  
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

## Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: [innoeconomic@qmii.uz](mailto:innoeconomic@qmii.uz)

**"Innovatsion iqtisodiyot"** ilmiy-amaliy elektron jurnali - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-martda 068055-raqam bilan ro'yxatga olingan.

## Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmatlar sohasi

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

### Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)*

Shevchenko Igor Viktorovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)*

Kusainov Xalel Xaymullaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)*

Samandarzoda Iskandar Hakim - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)*

Sidirov Viktor Aleksandrovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Kuban davlat universiteti)*

Dmitro Dema - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Ukraina milliy universiteti, Jitomir)*

### Tahririyat Kengashi a'zolari:

Abdurahmonov Qalandar Xodjaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik*

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik*

Yusupov Ahmadbek Tadjievich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Pardaev Mamayunus Qarshiboevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Maxmudov Nosir Maxmudovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Nazarova Fatima Xakimovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Murtazaev Olim - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Navro'z-zoda Baxtiyor Ne'matovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xatamov Ochildi Qurbonovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xamraeva Sayyora Nasimovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Salimov Baxtiyor Tadjievich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Rustamova Iroda Baxramjanovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Xurramov Azamat Fayzullaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Xayriddinov Azamat Botirovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Berdiev Abdumalik Hakimovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Fayzieva Shirin Shodmonovna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Omonov Rustam Farmonovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Samiyeva Gulnoza Taxirovna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.*

Egamberdieva Salima Raimberdievna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Tursunov Imomnazar Egamberdievich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.*

Erkaeva Gulbahor Panjievna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Turobov Sherzod Alisherovich - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Panjiev Samijon Aliqulovich - *pedagogika fanlari falsafa doktori,*

# ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

## Учредитель:

**Каршинский инженерно-экономический институт**

## Главный редактор:

О.Ш.Базаров, кандидат технических наук, доцент,  
ректор Каршинского инженерно-экономического  
института

## Заместитель редактора:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор,  
Каршинский инженерно-экономический институт

## Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD.  
Каршинский инженерно-экономический институт

## Технический редактор:

Ф.Ф.Хаккулов  
Каршинский инженерно-экономический институт

Журнал издается 4 раза в год в электронном виде  
через официальный сайт журнала.

## Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225.

Тел.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Научно-практический электронный журнал  
**«Инновационная экономика»** зарегистрирован  
Агентством информации и массовых коммуникаций  
при Администрации Президента Республики  
Узбекистан 10 марта 2023 года за номером 068055.

## Статьи публикуются в журнале на основе следующих рубрик:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика региона и отрасли
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

### Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - доктор экономических наук,  
профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - доктор экономических наук,  
профессор (Белорусский национальный технический университет)

Шевченко Игорь Викторович - доктор экономических наук, профессор  
(Кубанский государственный университет, Россия)

Кусаинов Халел Хаймуллаевич - доктор экономических наук, профессор  
(Казахстанский государственный технологический университет)

Самандарзода Искандар Ҳаким – доктор экономических наук,  
профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш.Шотемура)

Сидиров Виктор Александрович - доктор экономических наук,  
профессор (Кубанский государственный университет)

Дмитрий Дема - доктор экономических наук, профессор (Национальный  
университет Украины, г. Житомир)

### Члены Совета редколлегии:

Абдурахмонов Қаландар Ходжаевич - доктор экономических наук,  
профессор, академик

Гулямов Саидахрор Саидахмедович - доктор экономических наук,  
профессор, академик

Юсупов Аҳмадбек Таджиевич - доктор экономических наук, профессор

Пардаев Мамаюнус Қаршибоевич - доктор экономических наук,  
профессор

Вахабов Абдурахим Васикович - доктор экономических наук, профессор

Махмудов Носир Махмудович - доктор экономических наук, профессор

Назарова Фатима Хакимовна - доктор экономических наук, профессор

Муртазаев Олим - доктор экономических наук, профессор

Наврӯз-зода Бахтиёр Неъматович - доктор экономических наук,  
профессор

Хатамов Очилди Қурбоневич - доктор экономических наук, профессор

Хамраева Сайёра Насимовна - доктор экономических наук, профессор

Салимов Бахтиёр Таджиевич - доктор экономических наук, профессор.

Рустамова Ирода Бахрамжановна - доктор экономических наук,  
профессор.

Хуррамов Азамат Файзуллаевич - доктор экономических наук,  
профессор.

Хайриддинов Азамат Ботирович – кандидат экономических наук,  
доцент.

Бердиев Абдумалик Ҳакимович - кандидат экономических наук, доцент.

Файзиева Шириш Шодмоновна - кандидат экономических наук, доцент.

Омонов Рустам Фармонович - кандидат экономических наук, доцент.

Самиева Гулноза Тахировна - кандидат экономических наук, доцент.

Эгамбердиева Салима Раимбердиевна - кандидат экономических наук,  
доцент.

Турсунов Имомназар Эгамбердиевич - кандидат экономических наук,  
доцент.

Аликулов Азамат Туйғунович - кандидат экономических наук, доцент.

Эркаева Гулбахор Панжиевна - кандидат экономических наук, доцент.

Аминов Фазлитдин Бахадирович - кандидат экономических наук,  
доцент.

Хужакулова Нигора Рустамовна - кандидат экономических наук.

Туробов Шерзод Алишерович - кандидат экономических наук.

Эргашева Насиба Рахматуллаевна - кандидат экономических наук.

Панжиев Самижон Аликулович - PhD, доцент.

## Mundarija

<b>Nazariya va metodologiya</b> .....	8
IQTISODIY TADQIQOT OBYEKTI ASOSIDA MEHNAT POTENSIALINI BOSHQARISH .....	9
<i>Djanmaxmadov, Kurbonali Sheraliyevich</i>	
TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR .....	14
<i>Xujakulova, Nigora Rustamovna<sup>1</sup>, Poyonova, Aziza Nasriddin qizi<sup>2</sup></i>	
<b>Raqamli iqtisodiyot</b> .....	18
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI .....	19
<i>Ergashev, G'ayrat Urolovich</i>	
<b>Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti</b> .....	25
MINTAQADA "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI .....	26
<i>Samiyeva, Gulnoza Toxirovna, Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li</i>	
<b>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik</b> .....	35
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASH JARAYONLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....	36
<i>Saidova, Gulnoza Tulkunovna</i>	
<b>Inson kapitali iqtisodiyoti</b> .....	42
QIШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ .....	43
<i>Очилов Акрам Одilович, Алимова Муниса Юлчиевна,</i>	
<b>Menejment va marketing</b> .....	49
GLOBALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON EKSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI .....	50
<i>Nargiza Eshqobilova Mengnarovna, Usmonova Adiba Azim qizi</i>	
<b>Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</b> .....	55
TEKNOLOGIK TARAQQIYOT VA UNING IQTISODIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI .....	56
<i>Eshqobilova, Nargiza Mengnarovna, Pardayev, Jahongir Abdumurot o'g'li</i>	
<b>Xizmatlar sohasi</b> .....	61
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	62
<i>Тайлакова, Дилафруз Боймаматовна</i>	

# Содержание

<b>Теория и методология</b> .....	8
ТРУДОВОЙ ПОТЕНЦИАЛ И УПРАВЛЕНИЕ ТРУДОМ КАК ОБЪЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ .....	9
<i>Джонмахмадов, Курбонали Шералиевич</i>	
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ .....	14
<i>Хужакулова, Нигора Рустамовна<sup>1</sup>, Поёнова, Азиза Насриддин кизи<sup>2</sup></i>	
<b>Цифровая экономика</b> .....	18
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ .....	19
<i>Эргашев, Гайрат Уролович</i>	
<b>Экономика региона и отрасли</b> .....	25
ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ «ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ» В РЕГИОНЕ .....	26
<i>Самиева Гульноза Тохировна, Аликулов Хумоюн Тохир угли</i>	
<b>Малый бизнес и частное предпринимательство</b> .....	35
НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННОЙ ПЕРЕРАБОТКИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ .....	36
<i>Саидова, Гулноза Тулкуновна</i>	
<b>Экономика человеческого капитала</b> .....	42
КЛАССИФИКАЦИЯ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА УРОВЕНЬ ЖИЗНИ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ .....	43
<i>Очилов Акрам Одилевич, Алимова Муниса Юлчиевна,</i>	
<b>Менеджмент и маркетинг</b> .....	49
ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЭКСПОРТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....	50
<i>Усмоновой Адиба Азим кизи</i>	
<b>Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит</b> .....	55
ТЕХНИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ. ....	56
<i>Эшкобилова, Наргиза Менгнарровна, Пардаев, Джахангир Абдумурат угли.</i>	
<b>Сфера услуг</b> .....	61
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАШАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ .....	62
<i>Тайлакова, Дилафруз Боймаматовна</i>	

# Contents

<b>Theory and methodology</b> .....	8
LABOR POTENTIAL AND LABOR MANAGEMENT AS OBJECTS OF ECONOMIC RESEARCH .....	9
<i>Djanmakhmadov, Kurbonali Sheralievich</i>	
PROBLEMS IN EDUCATION DEVELOPMENT AND FACTORS AFFECTING IT .....	14
<i>Khujakulova, Nigora Rustamovna<sup>1</sup>, Poyonova, Aziza Nasriddin kizi<sup>2</sup></i>	
<b>Digital economy</b> .....	18
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES .....	19
<i>Ergashev, Gayrat Urolovich</i>	
<b>Economy of the region and industry</b> .....	25
ISSUES OF ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH BASED ON THE "GREEN ECONOMY" IN THE REGION .....	26
<i>Samieva Gulnoza Tokhirovna Alikulov, Khumoyun Tohir ugli</i>	
<b>Small business and private entrepreneurship</b> .....	35
DIRECTIONS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL PROCESSING OF AGRICULTURAL PRODUCTS .....	36
<i>Saidova, Gulnoza Tulkunovna</i>	
<b>Economics of human capital</b> .....	42
CLASSIFICATION OF FACTORS AFFECTING THE LIVING STANDARD OF THE RURAL POPULATION .....	43
<i>Ochilov Akram Odilovich, Alimova Munisa Yulchievna,</i>	
<b>Management and Marketing</b> .....	49
PROBLEMS OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF UZBEKISTAN'S EXPORTS UNDER GLOBALIZATION .....	50
<i>Usmonova Adiba Azim kizi</i>	
<b>Accounting, economic analysis and audit</b> .....	55
TECHNOLOGICAL PROGRESS AND ITS IMPACT ON ECONOMIC CHANGES. ....	56
<i>Eshkobilova, Nargiza Mengnarovna, Pardaev, Jaxhangir Abdumurat ugli</i>	
<b>Service sector</b> .....	61
ECONOMIC DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE SERVICE SECTOR IN RURAL AREAS OF KASHKADARYA REGION .....	62
<i>Taylakova, Dilafroz Boymamatovna</i>	

Nazariya va  
metodologiya

Теория и  
методология

Theory and  
methodology



# TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Xujakulova, Nigora Rustamovna<sup>1</sup>

Poyonova, Aziza Nasriddin qizi<sup>2</sup>

## ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ

Хужакулова, Нигора Рустамовна<sup>1</sup>

Поёнова, Азиза Насриддин кизи<sup>2</sup>

## PROBLEMS IN EDUCATION DEVELOPMENT AND FACTORS AFFECTING IT

Khujakulova, Nigora Rustamovna<sup>1</sup>

Poyonova, Aziza Nasriddin kizi<sup>2</sup>

■ Received: Dec 14th, 2024 ■ Revised: Dec 18th, 2024 ■ Accepted: Dec 20th, 2024 ■ Published Online: Dec 28th, 2024

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishning hamda sifatini ta'minlashning muhim ahamiyati, oliy ta'limni rivojlantirish va sifatini yaxshilashning nazariyalari, oliy ta'limda sifat kafolati evolyutsiyasining asosiy bosqichlari, tendentsiyalar va muammolari, ta'lim modellari yoritilgan va ko'p qirrali muammolar ko'rib chiqilgan.
- **Kalit** so'zlar: ta'lim, sifat, rivojlanish, inson kapitali, raqobat, mehnat bozori, ta'lim xizmatlari
- **Аннотация:** В статье освещены важность развития и обеспечения качества образования, теории развития и повышения качества высшего образования, основные этапы, тенденции и проблемы эволюции обеспечения качества в высшем образовании, модели образования, а также сформулирован ряд многогранных проблем.
- **Ключевые** слова: образование, качество, развитие, человеческий капитал, конкуренция, рынок труда, образовательные услуги.
- **Abstract:** This article discusses the importance of developing the education sector and ensuring its quality, theories of developing and improving the quality of higher education, the main stages of the evolution of quality assurance in higher education, trends and problems, educational models, and considers multifaceted problems.
- **Keywords:** education, quality, development, human capital, competition, labor market, educational services.

### KIRISH

XXI-asrning murakkabliklarini tahlil qilar ekanmiz, oliy ta'lim muassasalarining sifati bizning global muammolarni hal qilish, rivojlanayotgan texnologiyalarga moslashish va inklyuziv va adolatli jamiyatlarni rivojlantirish qobiliyatimizga bevosita ta'sir qilayotganini kuzatamiz.

Oliy ta'limni rivojlantirish hamda sifatini oshirish iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy taraqqiyot uchun zarurligini bir qancha tamoyillar namoyon etmoqda. Xususan, jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshlik uchun yaxshi ma'lumotli ishchi kuchi muhim ahamiyatga ega. Masalan, Qo'shma Shtatlar, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi kuchli oliy ta'lim tizimiga ega bo'lgan mamlakatlar malakali ishchi

kuchi tufayli rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga ega. Sifatli oliy ta'lim innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotga yordam berayotganini Stenford universitetining Silikon viloyatini rivojlanganligi va uning texnologiya sanoatiga ta'siri oliy ta'lim innovatsiyalarni qanday qo'zg'atayotganini ko'rsatdi. Sifatli oliy ta'lim muassasalari madaniy va ilm-fan taraqqiyotiga katta ta'sirini Oksford universitetining adabiyotga qo'shgan hissasi va Kembrij universitetining fandagi ulkan yutuqlari misolida ko'rish mumkin. Garvard tibbiyot maktabining tadqiqotlari insoniyatga foyda keltiradigan tibbiy yutuqlarga hissa qo'shib kelmoqda. Yangi sohalar paydo bo'lishi bilan oliy ta'lim kerakli ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga moslashib bordi. Ma'lumotlar fanining yuksalishi butun dunyo bo'ylab universitetlarni sanoat talabini qondirish uchun tegishli dasturlarni ishlab chiqishga undadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim va o'qitishni shaxs va jamiyatning iqtisodiy farovonligiga investitsiyalar sifatida qaraydi. Bu ta'lim va o'qitish dasturlarida resurslarni taqsimlashga ta'sir ko'rsatdi va malaka oshirish, samaradorlik va iqtisodiy o'sish muhimligini ta'kidlaydi. Gari S. Bekker (1930-2014): Amerikalik iqtisodchi va Nobel mukofoti sovrindori Gari Bekker ko'pincha Inson kapitali nazariyasining rivojlanishidagi markaziy shaxs sifatida qaraladi. Uning ishi, xususan, "Inson kapitali: nazariy va empirik tahlil" kitobi ta'lim va ishchi kuchining malakasini iqtisodiy tahlil qilish uchun asos yaratdi. Nobel mukofoti sovrindori Teodor Shults (1902-1998) qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish va qishloq joylarda iqtisodiy rivojlanishda ta'lim va kadrlar tayyorlashning rolini ta'kidlab nazariyaga katta hissa qo'shdi[2].

A.O.Ochilovning ilmiy tadqiqot ishi "yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish"[5] masalalariga bag'ishlangan. O.S. Qahharovning tadqiqot ishlarida "oliy ta'lim muassasalarida qabulni shakllantirish maqsadida olib borilgan, ya'ni real o'rganilgan potensial ish beruvchilar ehtiyojlarini hamda hukumat doirasida tasdiqlangan yo'l xaritalari va dasturlarini inobatga olgan holda qabul shakllantirishga asos bo'luvchi marketing tadqiqotlarini sifatli o'tkazilishi natijasida to'g'ri qaror qabul qilinishiga erishish"[6] zarurligini taklif etgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada oliy ta'lim xizmatlari, ularning xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatda ta'lim inson kapitalining, shuningdek, butun mamlakatning rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omilga aylanmoqda. Bunday rol ta'lim muassasalari faoliyatiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada o'zgartiradi, bu esa o'qitishning yangi usullarini joriy etish, o'quvchilarning ijodiy jarayonga jalb qilish faolligini oshirish, axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish va boshqalar uchun shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ilgari suradi. Ta'lim shaxsning mulki, uning o'zini o'zi anglash vositasi sifatida tushunilganda, innovatsion ta'limga bo'lgan ehtiyoj tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi ta'lim sohasini rivojlantirish va inson kapitalining raqobatbardoshligini hisobga olgan holda ta'lim xizmatlari bozorini yaratishga olib keladi.

Ta'lim xizmati dunyoning istalgan mamlakati uchun har qanday vaziyatda asosiy e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan sohalaridan biridir. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatalar hukumati o'z ta'lim xizmatlarini allaqachon rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi bilan tenglashtirish maqsadida katta e'tibor qaratmoqdalar. O'zbekiston ham o'z talim tizimini rivojlantirish va uni jahon talablariga moslashtirish maqsadida bu sohaga juda katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish ta'lim sohasini, va umuman olganda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim xizmatlariga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasida baholanmoqda. Oliy ta'limga qaratilayotgan e'tibor va sai harakatlarning asosiy maqsadi birinchi navbatda, oliy ta'lim sifatini jahon talablariga moslashtirish, o'z navbatida mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining jahon reytingidagi o'rnini yaxshilashdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909- son qaroriga muvofiq ravishda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobatni

shakllantirish, ta'lim sifatini yanada yaxshilash va oliy ta'lim muassasalarining reytingini xalqaro darajaga yetkazishga har tomonlama ko'maklashish maqsadida ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan so'ngi yillarda, har yili O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining Milliy reytingi e'lon qilib kelinmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimiz Oliy ta'lim tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasida Respublikada faoliyat yuritayotgan kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan agentliklar jumladan, Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities kabi bir nechta agentliklar reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim nuassassaari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand Davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish maqsad qilib olingan.

Raqobatbardosh iqtisodiyot yuqori professional darajadagi, uni postindustrial jamiyat ehtiyojlariga muvofiq doimiy ravishda takomillashtirib borishga qodir bo'lgan mutaxassislarni talab qiladi, uning asosini bilimlar iqtisodiyoti tashkil etadi. Jamiyat, davlat, mehnat bozorining yangi talablari oliy ta'lim mazmunini o'zgartirishni taqozo etadi, chunki, fan va texnologiya bugungi kunda yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradigan sur'atlarda rivojlanmoqda.

Iqtisodiyotning postindustrial rivojlanishi sharoitida ta'lim uning asosiy resursiga aylanadi, bu esa ta'lim muassasalari faoliyatiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada o'zgartiradi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qitishning yangi usullarini, yuqori darajadagi faollikni yaratishni, talabalarni ijodiy jarayonga jalb qilishni, axloqiy va madaniy qadriyatlarini shakllantirishni, ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini rivojlantirishni talab qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim fan va madaniyat markazi sifatida o'z maqsadini inson, Vatan va jahon sivilizatsiyasi baxt-saodati yo'lida haqiqatni anglash, adolat va ezgulikni o'rnatish deb bilgan professorlar, o'qituvchilar, xodimlar va talabalarni o'zida mujassamlashtirilgan ijodiy hamkorlikdir.

Ta'limning bosh vazifalari quyidagilardan iborat:

-shaxsning ruhiy, aqliy madaniy va axloqiy rivojlanishga faoliyatning tanlagan sohasi bo'yicha oliy kasbiy ta'lim va malakaga bo'lgan ehtiyojni qondirish;

-jamiyatni O'zbekiston Respublikasining mustaqillik g'oyasi,

vatanparvarlik, insonning ahloqiy prinsiplarini xurmat qilish ro'xida tarbiyalangan oliy kasbiy ta'limga ega bo'lgan malakali mutaxassislarga, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish;

-iqtidorli va o'qishda faollik kursatayotgan talabalarga kundalik g'amxo'rlik va kerakli sharoit yaratib berish;

-fundamental va izlanuvchi, amaliy-ilmiy tadqiqotlarni va boshqa ilmiynazariy, tajriba-konstruktorlik ishlarini, jumladan, ta'lim muammolari bo'yicha bajariladigan ishlarni tashkil qilish va olib borish;

-o'qituvchi va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

Ta'limda "sifat" tushunchasi ko'p qirrali va dinamik bo'lib, ta'lim muassasalari va dasturlari samaradorligi va qiymatini birgalikda belgilovchi keng ko'lamli o'lchovlarni o'z ichiga oladi. "Sifatli ta'limning asosiy ko'rsatkichi bu o'rganuvchilarning qay darajada o'zlashtirganliklari bilan o'lchanadi. Bu esa o'qituvchilarning belgilangan o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilarni baholash orqali, shuningdek, ish muhitida o'qituvchining o'z ishidan mamnun bo'lishida namoyon bo'ladi". Doimiy o'zgaruvchan ta'lim muhitida bu o'lchovlarni tushunish ta'lim muassasalari va manfaatdor tomonlar uchun juda muhimdir.

### Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xujakulova Nigora Rustamovna– Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasida dotsenti / Хужакулова Нигора Рустамовна - Каршинский инженерно-экономический институт, доцент кафедры Инновационной экономики / Khujakulova Nigora Rustamovna - Karshi Engineering Economics Institute, associate professor of the Department of innovative Economics

► [nigorakhujakulova86@gmail.com](mailto:nigorakhujakulova86@gmail.com)

■ <https://orcid.org/0009-0001-2936-1972>

2. Poyonova Aziza Nasriddin qizi– Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasida magistranti / Поёнова Азиза Насриддин қизи- Каршинский инженерно-экономический институт, магистрант кафедры Инновационной экономики / Poyonova Aziza Nasriddin kizi - Karshi Engineering Economics Institute, Master's student of the Department of Innovative Economics

### Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>

- [2] James J. Heckman. Introduction to The Distribution of Earning and of Individual Output, by A.D. Roy. The Economic Journal, 125 (March). 2015. – pp. 378-402. DOI: 10.1111/eoj.12226
- [3] Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти. (OECD) (2017), Education at a Glance 2017: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris. [Электронный ресурс]. – URL: <http://dx.doi.org/10.1787/eag-2017-en>.
- [4] Vaxabov A.V. Oliy ta'lim sifatini oshirishning xorij tajribasidan O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh etishda foydalanish imkoniyatlari. // Oliy ta'lim sifati iqtisodiy diagnostikasi: jahon amaliyoti va milliy xususiyatlari. Res. ilm.-amal. konf. mater. to'p.. – Namangan, 2019. – 403-407 b.;
- [5] Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish: Iqt. fan. dok. (DSc) diss. –T., 2018. –241 b.;
- [6] Kahhorov O.S. Oliy ta'lim muassasalari marketing faoliyati samaradorligini boshqarish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil. -141 b.
- [7] Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. Iqt. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. –Toshkent, 2019, 82 b.;
- [8] Isxakova S.A. Xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari daromadlarini oshirish va tarkibini takomillashtirish strategiyasi (Oliy ta'lim xizmatlari sohasi misolida): iqt. fan. fal. dok. dis. avtoref. (PhD). –Samarqand.: 2019. –64 b.